



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Strategiya bosh direktori:
B.Raxmatov

«4» mart 2026 y.
№ 217

**O‘zbekiston milliy terma jamoasi futbolchilari (J. Masharipov, O‘. Yusupov va O.
O‘runov)**
ishtirokidagi fotosessiya texnik topshiriq

№	Nomi	Talab
1	Buyurtmachi	“Biznesni Rivojlantirish Banki” ATB
2	Buyurtmachi manzili	Toshkent shahar, Alisher Navoiy ko‘chasi 18A-uy, 100011
3	Bajariladigan ish yoki ko‘rsatiladigan xizmat turi	O‘zbekiston milliy terma jamoasi futbolchilari (J.Masharipov, O‘.Yusupov va O.O‘runov) ishtirokidagi fotosessiya qilish
4	Moliyalashtirish manbai	Bankning o‘z mablag‘lari
5	Xarid predmeti batafsil tarkibi	Futbolchilar va bolalar ishtirokida 4 (to‘rt) kunlik suratga olish jarayonini studiyada hamda qo‘shimcha lokatsiyalarda (mahallalar hududlarida) tashkil etish. Shu jumladan, studiyani va boshqa sur‘atga olish maydonlarini ijaraga olish, rekvizitlar, kiyimlar, akter/aktrisa/model/sur‘atga tushishi lozim bo‘lgan insonlarni yollash, uskunalar va boshqa barcha zarur jixozlarni tayyorlash, raqobat tahlili, goya ishlab chiqish Bajaruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Amalga oshiriladigan barcha ishlar oldindan Buyurtmachi bilan kelishilishi lozim. Loyihaning asosiy vazifasi BRB brendining inson hayotining har bir bosqichida — harakatda, rivojlanishda, kundalik hayotda va kelajakka intilish jarayonida — yaqin va ishonchli hamkor sifatidagi pozitsiyasini aks ettiruvchi universal fotobank yaratish. Umumiy g‘oya va konsepsiya «BRB — har bir qadamingizda yoningizda» shiorini ochib beruvchi zamonaviy, jonli va dinamik vizual brend obrazini yaratish. Futbolchilar kundalik hayot yo‘lining qahramonlari sifatida namoyon bo‘ladi. Brend quyidagi obrazlarda namoyon bo‘ladi:

	• ishonchli tayanch; • energiya manbai; • rivojlanish va kelajak avlodga investitsiya kiritishda hamkor. Barcha konsepsiyalarda majburiy talablar: • korporativ ranglar integratsiyasi; • kadrda bank mahsulotlaridan foydalanish; • obrazlarni brendga moslashtirish; • fon va rekvizit stilistikasini vizual shovqinsiz, puxta o‘ylangan holda tashkil etish. Tayyorgarlik bosqichi 1. Vizual yo‘nalish • Umumiy vizual yondashuvni ishlab chiqish: kayfiyat, emotsional ohang, rang palitrasi, kompozitsion usullar. • Vizual referenslarni tanlash va taqdim etish. • BRB brendbuk talablariga qat’iy muvofiqlikni ta’minlash. 2. Ssenariy va raskadrovka • «Bank yoningizda» g‘oyasiga urg‘u berilgan holda raskadrovka va ssenariy yechimlarini tayyorlash. • Kontentdan keyinchalik universal foydalanishni (digital, outdoor) inobatga olgan holda shot-listlarni shakllantirish. 3. Yorug‘lik yechimi • Kontrastli, ifodali yorug‘lik va keng dinamik diapazonga ega yorug‘lik sxemasini ishlab chiqish. • Yuzning tabiiy chiziqlari, faktura va harakatga urg‘u berish. • Modellar va rekvizitning xiralashuviga yo‘l qo‘ymaslik. 4. Futbolchilar obrazlari Har bir qahramon uchun 3 ta obraz nazarda tutiladi: 1. Futbol formasi. 2. Sport kostyumi 3. Casual (kundalik uslub) Barcha obrazlar uchun talablar: • bank brend ranglari aksentlari; • brendning korporativ elementlari aks etgan aksessuarlar; • rang palitrasini brendga moslashtirish; • kiyim, fon va rekvizitning vizual uyg‘unligi. 5. Lokatsiyalar • Loyiha vazifalariga moslashtirilgan studiya maydonini tanlash va bron qilish. • Qo‘shimcha lokatsiyani ishlab chiqish — mahallada suratga olish, “yoningizda” ramzi sifatida, odatiy va tanish muhitni aks ettirish. • Keyingi integratsiyalar uchun universallikni ta’minlash maqsadida atrof-muhitga minimalistik va neytral yondashuv. 6. Jamoa va xizmatlar • Suratga olish jarayoni uchun ijodiy jamoani shakllantirish: bosh prodyuser, yoritish bo‘yicha mutaxassislar (gafferlar), fotograf, texnik mutaxassislar, stilist, vizajist, assistentlar hamda boshqa zarur mutaxassislar. • Xizmatlarni tashkillashtirish va ta’minlash: texnik uskunalarni ijaraga olish, kiyim-kechakni xarid qilish va/yoki ijaraga olish, keytering xizmatlarini ta’minlash, studiya maydonini ijaraga olish, modellarni yollash.
--	--

		• To‘rtta to‘liq suratga olish kuni uchun batafsil tayming, logistika, suratga olish jarayoni rejasi hamda shot-listlarni ishlab chiqish va kelishish. II. Suratga olish kunlari • O‘zbekiston terma jamoasining 3 futbolchisi va bolalar ishtirokida fotosuratlar olish jarayonini tashkil etish. • O‘zbekiston terma jamoasi futbolchilari: J. Masharipov, O. Yusupov va O. Urunov. • Bolalar – mahalliy aholi, 12 - 15 yosh, turli tashqi ko‘rinish va tipajlarni aks ettiruvchi, fotosessiyada ishtirok etish uchun tanlanadi. • Jarayoni bilan ishlash: tabiiy emotsiyalar, harakat va atrof-muhit bilan o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlash. • Rekvizit va bank mahsulotlaridan organik tarzda foydalanish — sun’iylik taassurotsiz. • Vizual natijaning brendbuk talablariga muvofiqligini nazorat qilish: yorug‘lik, rang, kompozitsiya va stilistika. Yakuniy bosqich • 300 ta fotosuratni professional (retush) qayta ishlash, jumladan: rang korreksiyasi, yorug‘lik bilan ishlash, teri retushi, kadrni kesish va kompozitsion tuzatishlar. • Buyurtmachiga barcha suratga olingan fotomateriallarni boshqa formatlarda keyinchalik foydalanish imkoniyati uchun topshirish. Kutilayotgan emotsional natija • «BRB — har bir qadamingizda yoningizda» shiorini aks ettiruvchi universal fotobank. • Reklama, digital va imijiy kommunikatsiyalarda qo‘llash mumkin bo‘lgan vizual kontent. • Ishonch va yaqinlik hissinı kuchaytiruvchi, yaxlit va tanib olinadigan brend obrazi.
6	Yetkazib berish shartlari	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 kalendar kun ichida.
7	To‘lov shartlari	Tomonlar shartnoma imzolagan kundan boshlab 3 bank kuni ichida shartnomaning miqdorining 50 foiz miqdorida oldindan to‘lov amalga oshiriladi. Shartnomaning 50 foiz miqdori buyurtmachi tomonidan xizmatni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 10 bank kuni ichida qisman to‘lab boriladi.
8	Shartnomaning amal qilish muddati	Shartnoma shartlari to‘liq bajargunga qadar
7	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar topshirish-qabul qilish dalolatnomalari taqdim etilib, ikki tomonlama imzolangan paytdan bajarilgan hisoblanadi.
8	Ishtirokchilarning tashkilotchi bilan bog‘lanish uchun aloqa telefonlari	(78) 150-93-39 (ichki 267) Ganiyeva F.

kelishuvchilar: S.Niyazov

<https://hujjat.brb.uz/document?pin=vW15hI68&id=8dc1da39-e89a-4fd5-af3d-330d50554f22>